

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-5

BINOLARDAN SAMARALI VA TEJAMKOR FOYDALANISH ASOSIDA UY-JOY QURILISHINI TASHKIL ETISH MASALALARI

Iqtisodiyot va servis instituti i.f.f.d. (Phd) Norqobilov N Iqtisodiyot va servis instituti
magistranti
Abdullaev J

ANNOTASIYA

Ushbu ilmiy maqolada mamlakatimiz hududlarida uy-joy qurilishida va ekspluatasiya davrida kam mablag' talab etuvchi texnologiyalarni qo'llash va binolardan samarali foydalanishni tashkil etish, uy-joy qurilishida resurs tejamkor energiya tejamkor texnologiyalardan foydalanish masalalari. Shuningdek, hududlarda aholini uy-joy bilan ta'minlash tahlili asosida mavjud muammoni echishda, bozor mexanizmlarini samarali qo'llash yo'li bilan bu muammoni echish bo'yicha xulosa, tavsiya va takliflar berilgan.

ВОПРОСЫ ОРГАНИЗАЦИИ ЖИЛИЩНОГО СТРОИТЕЛЬСТВА НА ОСНОВЕ ЭФФЕКТИВНОГО И ЭКОНОМИЧНОГО ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЗДАНИЙ

Аннотация (рус)

В данной научной статье речь идет об использовании малозатратных технологий при строительстве жилья и в период его эксплуатации, организации эффективного использования зданий, использовании ресурсосберегающих и энергосберегающих технологий в жилищном строительстве. Также на основе анализа обеспечения жильем населения в регионах даются выводы, рекомендации и предложения по решению существующей проблемы путем эффективного использования рыночных механизмов.

ISSUES OF ORGANIZING HOUSING CONSTRUCTION ON THE BASIS OF EFFICIENT AND ECONOMIC USE OF BUILDINGS

ABSTRAKT

This scientific article deals with the use of low-cost technologies in the construction of housing and during the period of operation, the organization of efficient

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-5

use of buildings, the use of resource-saving and energy-saving technologies in housing construction. Also, based on the analysis of providing housing to the population in the regions, conclusions, recommendations and suggestions on solving the existing problem by effectively using market mechanisms are given.

Key words: Economy, exploitation, project. initial-permitting documents, technical and economic basis.

Ключевые слова Экономика, эксплуатация, проект, исходно-разрешительная документация, технико-экономическая основа. рост, занятость, эффективность, предпринимательство, рыночная инфраструктура, процветание, сервис.

Kalit so‘zlar: tejamkorlik, ekspluatasiya, loyiha. boshlang‘ich-ruxsat beruvchi hujjatlar, texnik iqtisodiy asosnoma.

KIRISH

Kishilarning moddiy va ma'naviy ehtiyojlari orasida turar-joyga bo‘lgan ehtiyoj eng birinchi va asosiy ehtiyojlardan biri hisoblanadi. Zero, turar-joyga nisbatan ehtiyoji qondirilmasdan turib inson xotirjam hayot kechirish va o‘zini erkin his qilish imkoniyatiga ega bo‘lmaydi. O‘zbekiston Respublikasining Sh.M.Mirziyoevning tashabbusi avvalo fuqkorolarimiz turmush tarzini yaxshilashga qaratilgan konun va farmoyishlar ustida ish olib bormoqda. Ushbu qonun hujjatlarida uy-joy islohotlarining eng muhim jihat – mulkdorlar sinfini shakllantirishning dastlabki asosi sifatida uy-joyga bo‘lgan xususiy mulkchilikni vujudga keltirish, kishilarda mulkdorlik hissini vujudga keltirish va eng muhimi aholini uy-joy bilan ta'minlashga qaratilgan ehtiyojni qondirish hisoblanadi. Bizga ma'lumki, iqtisodiyotning bosh masalasi cheksiz ehtiyojlarni cheklangan resurslar bilan samarali qondirish hisoblanadi. Uy-joy qurilishida tejamkorlikka erishish va binolardan samarali foydalanishda aholining ehtiyojlarini maksimal darajada qondirish masalasi yotadi.

Iqtisodiy tomondan uy joy qurilishida har yil sarflanadigan mablag‘lardan tejamkorlik bilan foydalanib ko‘proq foyda olishga harakat qilinadi, ammo iqtisodiy yondashuvdan ko‘ra uy joy binolari qurilishida bino sathidan unumli foydalanishni tashkil etish qurilish jarayonidagi iqtisodiy samaradan ko‘ra bir necha marta katta ahamiyatga ega hisoblanadi.

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6.4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-5

Aynan qurilgan binoning mustahkam, chidamli, isitish uchun ko‘p energiya sarf qilinmaydigan, kommunal resurslardan tejamli foydalanish imkonini buruvchi, tez-tez qayta ta‘mirlashga ehtiyoj hosil qilmaydigan xususiyatga ega bo‘lishi binoga qo‘yiladigan zarur talablaridan biri bo‘lib uning samarasi bino faoliyat ko‘rsatib tugatilguniga qadar davom etadi.

Shu ma’noda tejamkorlik va uydan samarali foydalanish masalalari bir-biriga qarama-qarshi kategoriyalardir.

Shuning uchun uy-joy qurilishi va uning faoliyati davomida ushbu qarama-qarshi ko‘rsatkichlarni bir-biriga ta’sirini kamaytirish, ya’ni tejamkor va ekspluatasiya davrida kam mablag‘ talab etuvchi texnologiyalarni qo‘llash o‘ta muhim masala hisoblanadi. Hozirgi fan va texnika taraqqiy etgan sharoitda qurilishni tejamkorlik bilan olib borishda qurilish jihozlarini va qurilmalarni to‘g‘ri tanlash, ya’ni foydalanish jarayonida eng tejamkor texnologiyalarni tanlash samaradorlikning asosiy manbai hisoblanadi. Bundan tashqari binoning qavati qurilish hajmini to‘g‘ri tanlash ham tejamkorlik omillaridan biridir.

Respublikamizda mutaqillikka erishilganidan keyin arxitektura-qurilish sohasida ishlab chiqilgan me'yoriy hujjatlarda mahalliy sharoitni va tejamkor texnologiyalarni qo‘llashga alohida e’tibor qaratilmoqda. Shuning uchun uy-joy sohasida bino qurilishi hamda kapital ta‘mirlash va rekonstruksiya qilish jarayonlarida arxitektura me‘yorlaridan to‘liq va unumli foydalanish zarur. Demak, loyiha tanlashda bir necha xil loyihalardan texnik va iqtisodiy tomon yuqori samaradorlikka ega bo‘lganini tanlash yaxshi natija beradi.

Uy joy, kommunal xo‘jaligi sohasida binolardan foydalanishni samarali tashkil etish masalasi kommunal xizmatlar uchun to‘lov miqdorini kamaytirish, uy xo‘jaligi infratuzilmasini rivojlantirish, resurslardan oqilona foydalanish va uy joy mulkdorlarining moliyaviy mablag‘laridan samarali foydalanishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Binodan foydalanishni samarali tashkil etish masalasi bino qurilishi uchun loyiha tayyorlash jarayonida Texnik iqtisodiy asosnomalar (APZ) tayyorlashdan boshlanadi. Texnik iqtisodiy asosnomada binoga qo‘yiladigan muhandislik va kommunal servis vazifalari yoritib beriladi. Aynan, bino qurilayotgan hudud va ushbu hududagi 24 mahandislik kommunikasiyalarining mavjudligi bino qurilishida xonardonlarning obodolashganligini ta‘minlash imkonini beradi. Bunda binoning joylashishi asosiy

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-5

kommunal xizmatlar turlari tarkibiga kiruvchi kommunikasiyalari mavjudligi va ularga binoni ularish imkoniyati mavjudligidan kelib chiqqan holda asoslanishi lozim. Bu kommunikasiyalarga ularish i'mkoniyatini asoslash uchun mazkur xizmatlarni ko'rsatuvchi har bir communal xo'jaligi korxonalari bilan binoni qurilish joyini kelishish lozim bo'ladi.

Bino qurilishi joyini kelishish ishlari bino qurilishiga ruxsat beruvchi hujjatlarni rasmiylashtirish tartibiga asolangan holda amalga oshiriladi. Bino qurilishiga ruxsat beruvchi hujjatlarni rasmiylashtirish tartibi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Mulk huquqining daxlsizligini ishonchli himoya qilish, mulkiy munosabatlarga asossiz aralashuvga yo'l qo'ymaslik, xususiy mulkning kapitallashuv darajasini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2022 yil 24 avgustdagagi PF-198-sod farmoniga muvofiq davlat uy-joy fondidan foydalanish va uni tasarruf etishda ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash hamda sohada davlat xizmatlarini ko'rsatish tizimini takomillashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024 yil 11 martdagagi 124-sod Qaroriga muvofiq tasdiqlangan - Investisiya loyihasi uchun boshlang'ich ruxsat berish hujjatlarining tarkibi, ularni ishlab chiqish, kelishtirish va tasdiqlash to'g'risidagi Nizom ga muvofiq tayyorlanadi. Bino va inshootlar qurilishi uchun boshlang'ich ruxsat beruvchi hujjatlar kapital qurilish va arxitektura sohasida amal qiladigan qonunlar va me'yoriy hujjatlar asosida tayyorlanadigan loyiha va tender hujjatlarini ishlab chiqish uchun zarur hujjatlar paketidan iborat.

Bino qurilishini loyihalashda muhandislik kommunikasiyalari trassasi va ularga binoni bog'lovchi kommunikasiyalarni optimal joylashtirish va qurilayotgan binoda eng so'nggi fan-texnika yutuqlari asosida ishlab chiqarilgan muhandislik uskunalarining o'rnatilish communal xizmatlar ko'rsatishda resurslardan eng optimal foydalanish imkonini beradi. Shuningdek, binodan samarali foydalanishni tashkil etish binoni Davlat qabul komissiyasi tomonidan ekspluatasiyaga qabul qilish jarayonida muhandislik tarmoqlarini to'la quvvatda va mukammal faoliyat ko'rsatayotgan holda qabul qilishga va ularni ekspluatasiya qilish ishlarini binoning texnik pasportida keltirilgan me'yor va talablar asosida tashkil etishga bog'liq bo'ladi.

REFERENCES:

- Norqobilov, N. (2020). The role of foreign investment in the development of the economy of Kashkadarya region. *Business Expert*, 1, 145.

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-5

Norqobilov, N., & Abdullayev, J. (2023). Specific features of solving the housing problem in our country in the context of economic reforms. *Multidisciplinary Journal of Science and Technology*, 3(2), 21-23.

Норқобилов, Н. Н. (2017). Таълим тизимини бюджетдан ташқари молиялаштириш ва кадрлар тайёрлашда маркетингнинг ўрни. *Современное образование (Узбекистан)*, (8), 36-40.

Norqobilov, N., & Rasulov, F. (2023). THE ROLE OF SOCIAL PROTECTION IN IMPROVING THE LIVING WELL-BEING OF THE POPULATION. *Multidisciplinary Journal of Science and Technology*, 3(2), 24-25.

Norkobilov, N. N. (2021). Structure and features of expanding investment in the southern region of uzbekistan. *Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities*, 11(11), 704-709.